



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR



2024- YIL YANVAR – SENTABR
(dastlabki ma'lumot)

Asosiy kapitalga investitsiyalar

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 8 731,4 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 76,7 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 84,6 % yoki 7 390,0 mlrd. so'm investitsiyalar jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 15,4 % yoki 1 341,4 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 588,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 142,6 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi

76,7 %

Jami asosiy kapitalga
investitsiyalar
8 731,4 mlrd. so'm

64,1 %

To'g'ridan-to'g'ri
xorijiy investitsiyalar
4 824,9 mlrd. so'm

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy
investitsiya va kreditlar
1 776,0 mlrd. so'm

98,0 %

Korxona mablag'i
1 108,1 mlrd. so'm

91,8 %

115,3 %

Tijorat banklari kreditlari
va boshqa qarz mablag'lari
200,3 mlrd. so'm

129,2 %

Aholi mablag'lari
233,3 mlrd. so'm

O'zbekiston Respublikasi
kafolati ostida xorijiy kreditlar
68,8 mlrd. so'm

102,9 %

Respublika byudjeti
439,3 mlrd. so'm


110,4 %

960,2 %

Suv ta'minoti va kanalizatsiya
tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi
80,7 mlrd. so'm


Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi, mlrd. so'm



So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, eng katta ko'rsatkich 2023- yilda qayd etilgan bo'lib, 2020- yilga nisbatan 2 martaga o'sgan .


Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da




So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020-yildagi 115,5 % dan 2023- yilga kelib 104,1 % ga yetdi. Joriy davrda esa ko'rsatkichlar biroz pastlaganini ko'rishimiz mumkin.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, % da




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Sirdaryo viloyatida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, % da



Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari aholi mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 129,2 % ni tashkil etdi.

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1 108,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,7 foizini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,7 foiz yoki 233,3 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 4 824,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 10,9 % punktga kamayib, 55,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 200,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,3 foizini tashkil etdi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 68,8 mlrd. so'm (0,8%), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1 776,0 mlrd. so'm (20,3 %), Respublika byudjeti 439,3 mlrd. so'm (5,0 %), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 80,7 mlrd. so'm (0,9 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.



SIRDARYO VILOYATI





Shirin shahri





Yangiyer shahri





Guliston tumani







Oqoltin tumani



Sardoba tumani



Sayxunobod tumani





Sirdaryo tumani




Xovos tumani



Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'i nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

Statistik tahlilni o'tkazish maqsadida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha shakllanadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da




Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 4 871,1 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 55,8 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 3 116,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 35,7 %) va boshqa xarajatlarga 744,0 mlrd. so'm (8,5 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida kuzatildi – 57,5 % yoki 540,1 mlrd. so'm.

Asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida mashina va uskuna sotib olishga yo'naltirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Oqoltin tumanida kuzatilib, 72,0 % ni yoki 179,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiylarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan % da




■ Yangi qurilish ■ Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya □ Boshqa yo'nalishlar

Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 6 304,3 mlrd. so'mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 72,2 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1 116,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlash-tirilgan investitsiyalarning 12,8 foizini tashkil etdi. Qolgan 15,0 %, ya'ni 1 310,8 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


SIRDARYO VILOYATIDA IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR

Jami investitsiyalar hajmidagi ulushi



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da





To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 4 824,9 mlrd. so'mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 64,1 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 68,8 mlrd. so'mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etdi.

Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 1 776,0 mlrd. so'mni yoki, 2023-yilga nisbatan 98,0 % ni tashkil etdi.

**5 545,2
mlrd. so'm**
Xorijiy investitsiyalar



**1 124,5
mlrd. so'm**
Xorijiy kreditlar

Yuqori ulushga ega 8 ta investor-mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, jamiga nisbatan % da




Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Sirdaryo viloyati	4 824,9	68,8	1 776,0
shaharlar			
Guliston shahri	76,4	28,0	240,9
Shirin shahri	2 618,4	-	-
Yangiyer shahri	477,3	9,4	42,9
tumanlar			
Boyovut tumani	944,6	1,8	347,0
Guliston tumani	-	9,4	-
Mirzaobod tumani	27,3	-	92,4
Oqoltin tumani	196,1	-	12,6
Sardoba tumani	269,1	0,2	244,5
Sayxunobod tumani	50,4	9,4	222,4
Sirdaryo tumani	87,5	9,4	334,1
Xovos tumani	77,8	1,2	239,2

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichi IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida, Elektr va gaz bilan ta'minlash sohasida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 3 906,0 mlrd. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 58,6 foizini tashkil etdi.

Ishlab chiqarish sanoatida bu ko'rsatkich 2 283,9 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 34,2 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar- joylar, kv.m	Ulardan: qishloq joylardan kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
--	---------------------------	--	------------------------	------------------------

Sirdaryo viloyati	89 827	45 468	-	-
-------------------	--------	--------	---	---

shaharlar

Guliston shahri	39 095	-	-	-
-----------------	--------	---	---	---

Shirin shahri	208	-	-	-
---------------	-----	---	---	---

Yangiyer shahri	2 335	-	-	-
-----------------	-------	---	---	---

tumanlar

Boyovut tumani	4 183	2 887	-	-
----------------	-------	-------	---	---

Guliston tumani	3 339	3 339	-	-
-----------------	-------	-------	---	---

Mirzaobod tumani	1 153	1 153	-	-
------------------	-------	-------	---	---

Oqoltin tumani	911	911	-	-
----------------	-----	-----	---	---

Sardoba tumani	2 689	1 264	-	-
----------------	-------	-------	---	---

Sayxunobod tumani	1 447	1 447	-	-
-------------------	-------	-------	---	---

Sirdaryo tumani	27 739	27 739	-	-
-----------------	--------	--------	---	---

Xovos tumani	6 728	6 728	-	-
--------------	-------	-------	---	---

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 67 236-70-00 (2020)